XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 24 - noyabr VI-93-255-14-0-K/23 Toshkent shahar hokimligi

Toshkent shahridagi ayrim geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi va “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunlari, Vazirlar Mahkamasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida” 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son qaroriga hamda Toshkent shahar hokimligi huzuridagi Raqamli rivojlanish departamentining 2023-yil 6-yanvardagi 01-02-son murojaatnomasiga asosan xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Toshkent shahar komissiyasining 2023-yil 14-sentabrdagi 7-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Toshkent shahridagi ayrim aholi punktlarining tarkibiy qismlarini nomlash bo‘yicha berilgan takliflar ro‘yxati 1-ilovaga;

Toshkent shahridagi ayrim aholi punktlarining tarkibiy qismlarini qayta nomlash bo‘yicha berilgan takliflar ro‘yxati 2-ilovaga;

Toshkent shahridagi ayrim aholi punktlarining tarkibiy qismlarini turiga aniqlik kiritish bo‘yicha berilgan takliflar ro‘yxati 3-ilovaga;

Toshkent shahridagi ayrim aholi punktlarining tarkibiy qismlarining geografik joylashuviga aniqlik kiritish bo‘yicha berilgan takliflar ro‘yxati 4-

ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Toshkent shahar hokimining Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari (S.Obidov), tuman hokimliklari nomlanayotgan va qayta nomlanayotgan aholi punktlarining tarkibiy qismlari (shohko‘chalar, ko‘chalar, tor ko‘chalar, berk ko‘chalar) to‘g‘risida mahalliy aholi o‘rtasida tegishli tushuntirish ishlarini olib borsin.

4. Toshkent shahar hokimining Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari (S.Obidov), Toshkent shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (M.Isabayev), Toshkent shahar Soliq boshqarmasi (Y.Nasimdjanov), Toshkent shahar Statistika boshqarmasi (L.Mirsoatov) mazkur qarorga asosan tegishli hujjatlarga o‘rnatilgan tartibda o‘zgartirishlar kiritsin hamda bu borada zarur choralarni ko‘rsin.

5. Davlat kadastrlari palatasi Toshkent shahar boshqarmasi (J.Karimov) ikki oy muddatda:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-dekabrdagi 1010-son qarori bilan tasdiqlangan Ko‘chmas mulk obyektlari manzillari yagona reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi to‘g‘risidagi Nizom talablari asosida nomlanayotgan va qayta nomlanayotgan aholi punktlarining tarkibiy qismlarida (shohko‘chalar, ko‘chalar, tor ko‘chalar, berk ko‘chalar) joylashgan ko‘chmas mulk obyektlarining manzillarini belgilash, o‘zgartirish va me’yorlashtirish ishlarini amalga oshirsin;

manfaatdor shaxslarni manzilning o‘zgartirilganligi haqida o‘rnatilgan tartibda xabardor qilsin.

Toshkent shahar hokimligi huzuridagi Raqamli rivojlanish departamenti bilan hamkorlikda ushbu qaror bilan aholi punktlarining tarkibiy qismlarining geografik joylashuviga aniqlik kiritilishi munosabati bilan manzillarni me’yorlashtirish ishlari yakunlanganidan so‘ng Mirzo Ulug‘bek tumanidagi Quva va Salorbo‘yi ko‘chalari; Yashnobod tumanidagi Sabzazor ko‘chasi; Sergeli tumanidagi Nozanin ko‘chasi; Chilonzor tumanidagi Poygoh ko‘chasi; Olmazor tumanidagi Rabot ko‘chasi; Yunusobod tumanidagi Yangiqo‘rg‘on-1 tor ko‘chasi, Benazir ko‘chasi, Baraka-1 berk ko‘chasi (qismi), Nurziyo ko‘chasi (qismi), Yuqori Salor ko‘cha (qismi)larining geografik joylashuvini qayta ko‘rib chiqish yuzasidan tegishli tuman hokimliklariga taklif kiritsin.

6. Toshkent shahar hokimligi Obodonlashtirish bosh boshqarmasi (R.Yusupov) uch oy muddat ichida nomlanayotgan va qayta nomlanayotgan aholi punktlarining tarkibiy qismlarida (shohko‘chalar, ko‘chalar, tor ko‘chalar, berk ko‘chalar) ko‘cha ko‘rsatkichlari (peshlavhalari)ni davlat tili talablariga mos ravishda belgilangan tartibda o‘rnatish va almashtirish ishlarini yakunlasin.

7. Toshkent shahar hokimligi Matbuot xizmatiga mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishi va www.toshkent.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

8. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Sh.Sagdullayev, Toshkent shahar hokimining o‘rinbosarlari S.Obidov va A.Xen zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi **T. Matibayev**

Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining
2023-yil 24-noyabrdagi
VI-93-255-14-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

Toshkent shahridagi ayrim aholi punktlarining tarkibiy qismlarini nomlash bo‘yicha berilgan takliflar ro‘yxati

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Geografik obyektning yangi nomi	Geografik obyektning shartli xaritada joylashuvi
1.	**Shohko‘cha**	Yakkasaroy tumanidagi Qushbegi mahallasi, Dilbuloq mahallasi; Sergeli tumanidagi Ko‘hna Qumariq mahallasi, Qipchoq mahallasi, Qubaytepa mahallasi, Qumariq mahallasi, Qut-baraka mahallasi, Oltinvodiy mahallasi, Sug‘diyona mahallasi, Xonobodtepa mahallasi, Eski Jaloyir mahallasi	Yangi shohko‘cha	Sergeli yo‘li shohko‘chasi	Shota Rustaveli ko‘chasidan Qipchoq ko‘chasigacha

Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining
2023-yil 24-noyabrdagi
VI-93-255-14-0-K/23-son qaroriga
2-ilova

Toshkent shahridagi ayrim aholi punktlarining tarkibiy qismlarini qayta nomlash bo‘yicha berilgan takliflar ro‘yxati

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Geografik obyektning yangi nomi	Geografik obyektning shartli xaritada joylashuvi

1.	**Shohko‘cha**	Bektemir tumanidagi Nurafshon mahallasi, Mirishkor mahallasi; Yashnobod tumanidagi O‘rtamasjid mahallasi, Tarnovboshi mahallasi, Katta Qo‘yliq mahallasi, Yangiqo‘rg‘on mahallasi; Mirobod tumanidagi Chinor mahallasi, Yangi Qo‘yliq mahallasi, Qo‘yliqota mahallasi, Barotxo‘ja mahallasi; Sergeli tumanidagi Ko‘hna Qumariq mahallasi, Yuqori Darxon mahallasi, Qubaytepa mahallasi, Qumariq mahallasi, Eshonbuloq mahallasi, Qut-baraka mahallasi, Qo‘shqo‘rg‘on mahallasi, Madaniyat mahallasi, Nomdanak mahallasi, No‘g‘oyqo‘rg‘on mahallasi, Sultonobod mahallasi, O‘zgarish mahallasi, Asrobod mahallasi, Birdamlik mahallasi, Bunyodobod mahallasi, Shukrona mahallasi, Kengmakon mahallasi; Yangihayot tumanidagi Tashabbus mahallasi, Yangi Darxon mahallasi	Katta halqa yo‘li ko‘chasi (qismi)	Xonobodtepa shohko‘chasi	Ohangaron shohko‘chasi kesishmasidan Toshkent yangi aylanma yo‘li bilan kesishgan qismigacha
2.	**Berk ko‘cha**	Mirzo Ulug‘bek tumanidagi Bahor mahallasi	Temur Malik ko‘chasi (qismi)	Temur Malik-1 berk ko‘chasi	Temur Malik ko‘chasidan boshlanuvchi
3.	**Berk ko‘cha**	Mirzo Ulug‘bek tumanidagi Yalang‘och mahallasi	Temur Malik-1 berk ko‘chasi	Temur Malik-2 berk ko‘chasi	Temur Malik ko‘chasidan boshlanuvchi
4.	**Berk ko‘cha**	Mirzo Ulug‘bek tumanidagi Yalang‘och mahallasi	Temur Malik ko‘chasi (qismi)	Temur Malik-3 berk ko‘chasi	Temur Malik ko‘chasidan boshlanuvchi
5.	**Berk ko‘cha**	Mirzo Ulug‘bek tumanidagi Yalang‘och mahallasi	Temur Malik-3 berk ko‘chasi	Temur Malik-4 berk ko‘chasi	Temur Malik ko‘chasidan boshlanuvchi
6.	**Berk ko‘cha**	Mirzo Ulug‘bek tumanidagi Nodirabegim mahallasi	Temur Malik-2 berk ko‘chasi	Temur Malik-5 berk ko‘chasi	Temur Malik ko‘chasidan boshlanuvchi
7.	**Berk ko‘cha**	Mirzo Ulug‘bek tumanidagi Yalang‘och mahallasi	Sultoniya-4 berk ko‘chasi (qismi)	Temur Malik-6 berk ko‘chasi	Temur Malik ko‘chasidan boshlanuvchi

8.	**Berk ko‘cha**	Mirzo Ulug‘bek tumanidagi Avayxon mahallasi	Qorasuvbo‘yi ko‘chasi (qismi)	Temur Malik-7 berk ko‘chasi	Temur Malik ko‘chasidan boshlanuvchi
9.	**Berk ko‘cha**	Mirzo Ulug‘bek tumanidagi Avayxon mahallasi	Qorasuvbo‘yi ko‘chasi (qismi)	Temur Malik-8 berk ko‘chasi	Temur Malik ko‘chasidan boshlanuvchi
10.	**Berk ko‘cha**	Mirzo Ulug‘bek tumanidagi Avayxon mahallasi	Qorasuvbo‘yi ko‘chasi (qismi)	Temur Malik-9 berk ko‘chasi	Temur Malik ko‘chasidan boshlanuvchi
11.	**Berk ko‘cha**	Mirzo Ulug‘bek tumanidagi Avayxon mahallasi	Qorasuvbo‘yi ko‘chasi (qismi)	Temur Malik-10 berk ko‘chasi	Temur Malik ko‘chasidan boshlanuvchi
12.	**Tor ko‘cha**	Mirzo Ulug‘bek tumanidagi Bahor mahallasi	Temur Malik-1 tor ko‘chasi	Turon-1 tor ko‘chasi	Turon ko‘chasidan Temur Malik ko‘chasigacha
13.	**Tor ko‘cha**	Mirzo Ulug‘bek tumanidagi Sho‘rtepa mahallasi	Turon tor ko‘chasi	Turon-2 tor ko‘chasi	Temur Malik ko‘chasidan G‘azalkent-2 tor ko‘chasigacha
14.	**Ko‘cha**	Mirzo Ulug‘bek tumanidagi Sho‘rtepa mahallasi	G‘azalkent-2 tor ko‘chasi va Temur Malik-4 berk ko‘chasi	Sherdor ko‘chasi	Temur Malik ko‘chasidan G‘azalkent ko‘chasigacha

Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining
2023-yil 24-noyabrdagi
VI-93-255-14-0-K/23-son qaroriga
3-ilova

Toshkent shahridagi ayrim aholi punktlarining tarkibiy qismlarini turiga aniqlik kiritish bo‘yicha berilgan takliflar ro‘yxati

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Geografik obyektning yangi nomi	Geografik obyektning shartli xaritada joylashuvi
1.	**Shohko‘cha**	Yashnobod tumanidagi Parvoz mahallasi, Tarnovboshi mahallasi, Tong mahallasi, Birlashgan mahallasi, Vatandosh mahallasi, Go‘zal mahallasi, Dilbog‘ mahallasi, Donishmand mahallasi, Iltifot mahallasi, Shohsanam mahallasi, Do‘stobod mahallasi, Navro‘zobod mahallasi, Amir Temur mahallasi, Olmos mahallasi; Bektemir tumanidagi Rohat mahallasi, Majnuntol mahallasi, Mirishkor mahallasi	Ohangaron ko‘chasi	Ohangaron shohko‘chasi	Parkent, Mahtumquli va Temur Malik ko‘chalari kesishuvidagi yo‘l o‘tkazgichdan Toshkent yangi aylanma yo‘li bilan kesishgan Toshkent shahrining ma’muriy-hududiy chegarasigacha

2.	**Shohko‘cha**	Sergeli tumanidagi Qipchoq mahallasi, Quruvchilar mahallasi, Nilufar mahallasi, Nomdanak mahallasi, Nurhayot mahallasi, Saxovat mahallasi, Sultonobod mahallasi, Xonobodtepa mahallasi, Xontepa mahallasi, Ittifoq mahallasi; Yangihayot tumanidagi Yorqinhayot mahallasi, Navqiron mahallasi, Olchazor mahallasi, Fayzli mahallasi, Xushnud mahallasi, Chorbog‘ mahallasi, Al-Farg‘oniy mahallasi, Viqor mahallasi	Qipchoq ko‘chasi	Qipchoq shohko‘chasi	Katta halqa yo‘li ko‘chasidan Toshkent yangi aylanma yo‘li bilan kesishgan qismigacha
3.	**Shohko‘cha**	Yashnobod tumanidagi To‘ytepa mahallasi, Fidoyilar mahallasi, Cho‘lpon mahallasi, Mashinasozlar mahallasi, Do‘stobod mahallasi Mirzo Ulug‘bek tumanidagi Oqibat mahallasi, Shahrisabz mahallasi, Nur mahallasi	Mahtumquli ko‘chasi	Mahtumquli shohko‘chasi	Amir Temur xiyobonidan Parkent, Temur Malik ko‘chalari va Ohangaron shohko‘chasi kesishuvidagi yo‘l o‘tkazgichgacha
4.	**Shohko‘cha**	Yashnobod tumanidagi Mashinasozlar mahallasi, Boyqo‘rg‘on mahallasi; Mirzo Ulug‘bek tumanidagi Bog‘imaydon mahallasi, Bo‘z mahallasi, Buyuk ipak yo‘li mahallasi, Habib Abdullayev mahallasi, Yangi Olmachi mahallasi, Turon mahallasi, Kamolot mahallasi, Katta Yalang‘ochota mahallasi, Elobod mahallasi, Alpomish mahallasi, Olimlar mahallasi, Podshobog‘ mahallasi, Bahor mahallasi	Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi	Mirzo Ulug‘bek shohko‘chasi	Mahtumquli ko‘chasi kesishuvidan Feruza ko‘chasi kesishuvigacha

5.	**Shohko‘cha**	Shayxontohur tumanidagi Ilg‘or mahallasi, Katta Oqtepa mahallasi, Kohota mahallasi, Ko‘kcha Darvoza mahallasi, Ko‘kcha mahallasi, Yangishahar mahallasi, Labzak mahallasi, Obinazir mahallasi, Oqlon mahallasi, Olim Xo‘jayev mahallasi, Taxtapul mahallasi, Bog‘ko‘cha mahallasi; Olmazor tumanidagi Guzarboshi mahallasi, Guruchariq mahallasi, Xonchorbog‘ mahallasi, Hazrati Imom mahallasi, Chig‘atoy Darvoza mahallasi, Chilto‘g‘on mahallasi, Kaykovus mahallasi, Qorasaroy mahallasi, Quyosh mahallasi, Chustiy mahallasi, Qo‘shtut mahallasi, Yuqori Sebzor mahallasi; Yunusobod tumanidagi Matonat mahallasi, Minor mahallasi	Nurafshon aylanma ko‘chasi	Nurafshon shohko‘chasi	Samarqand Darvoza, Gulxaniy, Bog‘iston va Seul ko‘chalari kesishmasidan Sharof Rashidov va Osiyo ko‘chalari kesishmasigacha

Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining
2023-yil 24-noyabrdagi
VI-93-255-14-0-K/23-son qaroriga
4-ilova

Toshkent shahridagi ayrim aholi punktlarining tarkibiy qismlarining geografik joylashuviga aniqlik kiritish bo‘yicha berilgan takliflar ro‘yxati

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Geografik obyektning yangi nomi	Geografik obyektning shartli xaritada joylashuvi

1.	**Ko‘cha**	Yunusobod tumanidagi Shoshtepa mahallasi, Mehnatobod mahallasi, Yurtobod mahallasi, Barhayot mahallasi, Obod mahallasi, Oqtepa mahallasi, Posira mahallasi, Beg‘ubor mahallasi, Bobodehqon mahallasi, Halqabog‘ mahallasi, Uchqahramon mahallasi, Islomobod mahallasi, Hasanboy mahallasi, Katta Hasanboy mahallasi, Sharq haqiqati mahallasi; Olmazor tumanidagi Ahil mahallasi, Yuqori Beshqo‘rg‘on mahallasi, Jiydali mahallasi, Chamanbog‘ mahallasi, Shifokorlar mahallasi, Moyariq mahallasi, Nihol mahallasi; Shayxontohur tumanidagi Shodlik mahallasi, Yangi Beltepa mahallasi, Beltepa mahallasi, Ibn Sino mahallasi; Uchtepa tumanidagi Quyi Darxon mahallasi, O‘rikzor mahallasi, O‘tkir mahallasi, Uchtepa mahallasi, Foziltepa mahallasi, Diyorobod mahallasi, Xurshid mahallasi, Zulfizar mahallasi, Shaftolizor mahallasi, Ko‘rkamobod mahallasi, Yusuf Sakkokiy mahallasi, Yangiyo‘l mahallasi; Chilonzor tumanidagi Bekto‘pi mahallasi, Beshqo‘rg‘on mahallasi, Al-Xorazmiy mahallasi; Yangihayot tumanidagi Jaloyir mahallasi, Oriyat mahallasi, Tashabbus mahallasi, Toshkent mahallasi, Xushnud mahallasi, Chortoq mahallasi, Choshtepa mahallasi, Yangi Gulzor mahallasi, Yangi Darxon mahallasi, Yangi Umid mahallasi, Yangihayot mahallasi, Binokor mahallasi, Gulshanobod mahallasi; Bektemir tumanidagi Gulbog‘ mahallasi, Zabardast mahallasi, Iykota mahallasi, Majnuntol mahallasi, Nurliyo‘l mahallasi	Katta halqa yo‘li ko‘chasi (asosiy qismi)	Katta halqa yo‘li ko‘chasi	Toshkent yangi aylanma yo‘li bilan kesishgan Toshkent shahrining ma’muriy-hududiy chegarasidan Bog‘ishamol va Temur Malik ko‘chalari kesishmasigacha

2.	**Ko‘cha**	Mirobod tumanidagi Salor mahallasi, Yangi Mirobod mahallasi, Tong yulduzi mahallasi, Baynalmilal mahallasi; Yakkasaroy tumanidagi Armug‘on mahallasi, Damariq mahallasi, Dilbuloq mahallasi, Boshliq mahallasi, Qushbegi mahallasi, Yakkasaroy mahallasi; Chilonzor tumanidagi Navbahor mahallasi, Naqqoshlik mahallasi, Fidokor mahallasi, Gavhar mahallasi, Zarqo‘rg‘on mahallasi, Katta Do‘mbirobod mahallasi, Katta Qozirabot mahallasi, Cho‘ponota mahallasi, Ko‘tarma mahallasi, Qozirabot mahallasi, Lutfiy mahallasi; Uchtepa tumanidagi Qo‘rg‘ontepa mahallasi, Paxtakor mahallasi, Bog‘iston mahallasi, Guzar mahallasi, Degrez mahallasi, Ko‘hna Cho‘ponota mahallasi, Shofayzibog‘ mahallasi; Shayxontohur tumanidagi Ipakchi mahallasi, Shofayzi mahallasi, Katta Oqtepa mahallasi, Ko‘kcha mahallasi, Mannon Uyg‘ur mahallasi, Taxtapul mahallasi, Tinchlik mahallasi, Jarariq mahallasi, Zafarobod mahallasi; Olmazor tumanidagi Orzu mahallasi, G‘ani A’zamov mahallasi, Taraqqiyot mahallasi, Universitet mahallasi, Guruchariq mahallasi, Xonchorbog‘ mahallasi, Zamondosh mahallasi, Ziyo mahallasi, Chilto‘g‘on mahallasi, Qorasaroy mahallasi, Miskin mahallasi, Allon mahallasi; Yunusobod tumanidagi Minor mahallasi, Mirzo Ulug‘bek mahallasi, Turkqo‘rg‘on mahallasi, Firdavsiy mahallasi, Shayx Shibliy mahallasi; Mirzo Ulug‘bek tumanidagi Oydin mahallasi, Darxon mahallasi, Mirzakalon Ismoiliy mahallasi; Yashnobod tumanidagi Cho‘lpon mahallasi	Kichik halqa yo‘li ko‘chasi	Kichik halqa yo‘li ko‘chasi	Mirobod va Yashnobod tumanlarining ma’muriy-hududiy chegarasining Kichik halqa yo‘li ko‘chasidagi kesishmasidan boshlanuvchi

3.	**Ko‘cha**	Yunusobod tumanidagi Posira mahallasi; Mirzo Ulug‘bek tumanidagi Oltintepa mahallasi, Avayxon mahallasi, Alisher Navoiy mahallasi, Bahor mahallasi, Beshkapa mahallasi, Bog‘imaydon mahallasi, Geologlar mahallasi, Geofizika mahallasi, Gulzorobod mahallasi, Gulsanam mahallasi, Katta Qorasuv mahallasi, Katta Yalang‘ochota mahallasi, Ko‘hna Mevazor mahallasi, Minglola mahallasi, Nodirabegim mahallasi, Sultoniya mahallasi, Temuriylar mahallasi, Shahriobod mahallasi, Sho‘rtepa mahallasi, Chimboy mahallasi, Yalang‘och mahallasi, Yangi Avayxon mahallasi	Temur Malik ko‘chasi	Temur Malik ko‘chasi	Katta halqa yo‘li va Bog‘ishamol ko‘chalari kesishmasidan Parkent, Mahtumquli ko‘chalari va Ohangaron shohko‘chasi kesishuvidagi yo‘l o‘tkazgichgacha